

2025-YIL,
MAXSUS
SON.
(№ 003)



XALQARO REYTINGLARDA O‘ZBEKISTONNING O‘RNINI YAXSHILASH YO‘NALISHLARI

Mamatqulov Bekzod Akmalovich

Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi

Email: bekzodmamatkulov4444@gmail.com

ORCID: 0009-0004-2019-222X

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss7/740

Annotatsiya

Mazkur ishda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi o‘rnini yanada yaxshilash yo‘nalishlari va bu borada amalga oshirilayotgan amaliy chora-tadbirlar tahlil etiladi. Unda mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va institutsional sohalardagi islohotlari, ularning xalqaro indekslardagi ko‘rsatkichlarga ta‘siri, shuningdek, “Doing Business”, “Global Innovation Index”, “Human Development Index” kabi reytinglarda pozitsiyani mustahkamlash omillari yoritilgan. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonning global miqyosda raqobatbardoshligini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, iqtisodiy rivojlanish, raqobatbardoshlik, “Doing Business”, “Global Innovation Index”, “Human Development Index”, barqaror rivojlanish, investitsion jozibadorlik, milliy strategiya, xalqaro tajriba, davlat boshqaruvi samaradorligi.

Аннотация

В данной работе анализируются направления дальнейшего улучшения позиции Республики Узбекистан в международных рейтингах, а также реализуемые в этой сфере практические меры. Рассмотрены реформы, проводимые в экономической, социальной, правовой и институциональной сферах страны, их влияние на показатели международных индексов, а также факторы укрепления позиций в таких рейтингах, как Doing Business, Global Innovation Index, Human Development Index. Результаты исследования имеют важное значение для повышения глобальной конкурентоспособности Узбекистана, привлечения иностранных инвестиций и достижения целей устойчивого развития.

Ключевые слова: Узбекистан, экономическое развитие, конкурентоспособность, Doing Business, Global Innovation Index, Human Development Index, устойчивое развитие, инвестиционная привлекательность, национальная стратегия, международный опыт, эффективность государственного управления.

Abstract

This study analyzes the directions for further improving the position of the Republic of Uzbekistan in international rankings and the practical measures being implemented in this regard. It examines the country’s reforms in economic, social, legal, and institutional spheres, their impact on international index indicators, as well as the factors contributing to strengthening its position in rankings such as “Doing Business”, “Global Innovation Index”, and “Human Development Index”.

The research results are of great importance for enhancing Uzbekistan’s global competitiveness, attracting foreign investment, and achieving sustainable development goals.

Keywords: Uzbekistan, economic development, competitiveness, Doing Business, Global Innovation Index, Human Development Index, sustainable development, investment attractiveness, national strategy, international experience, public administration efficiency.

Kirish

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi xalqaro maydonda o‘zining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy salohiyatini yuksaltirish yo‘lida faol islohotlarni amalga oshirmoqda. Jahon hamjamiyati bilan integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi mamlakatning xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshilashni muhim strategik vazifalardan biriga aylantirdi. Chunki xalqaro reyting va indekslarda yuqori o‘rin egallash mamlakatning iqtisodiy barqarorligi, investitsion jozibadorligi hamda xalqaro nufuzining oshishiga bevosita ta‘sir etuvchi omildir. Shu boisdan O‘zbekiston hukumati tomonidan so‘nggi yillarda iqtisodiy erkinlik, biznes muhiti, inson kapitali va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan kompleks dasturlar amalga oshirilmoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, xalqaro reytinglardagi o‘rinni yaxshilash nafaqat mamlakatning ijobiy imijini mustahkamlaydi, balki xorijiy sarmoyadorlar, xalqaro tashkilotlar va donorlar ishonchini ham kuchaytiradi. Masalan, “Doing Business”, “Global Innovation Index” va “Human Development Index” kabi reytinglarda yuqori ko‘rsatkichlarga erishish mamlakatning iqtisodiy o‘shishini jadallashtiradi, yangi ish o‘rinlari yaratadi va xalq farovonligini oshiradi. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro reytinglardagi o‘rinni yaxshilash bo‘yicha olib borilayotgan siyosat O‘zbekistonning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Mazkur mavzuni o‘rganish O‘zbekistonning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini baholash, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha samarali yo‘nalishlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Tadqiqot davomida xalqaro reytinglar tizimining mohiyati, baholash mezonlari, O‘zbekistonning hozirgi holati hamda reytingdagi pozitsiyasini yaxshilash uchun zarur bo‘lgan amaliy chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Shu orqali mamlakatning jahon miqyosidagi obro‘cini mustahkamlash va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘llari asoslab beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ushbu bo‘limda so‘nggi 5–6 yillik davrda O‘zbekistonning xalqaro reytinglardagi o‘rniga bag‘ishlangan muhim mahalliy va xorijiy ilmiy ishlar tanlab olinib, ularning metodologiyasi, asosiy natijalari va siyosatga ta‘siri qisqacha tahlil qilinadi. Maqsad O‘zbekiston pozitsiyasini yaxshilashda amaliy jihatdan eng ko‘p og‘irlik talab qiladigan yo‘nalishlarni aniqlash va tadqiqotlarning amaliy tavsiyalarini baholashdir.

Ayrim tadqiqotlarda mualliflar O‘zbekistonning innovatsion ekotizimini, ilmiy-tadqiqot salohiyati va siyosat instrumentlarini tizimli tahlil qilib, innovatsiya ko‘rsatkichlarini yaxshilash orqali GII (Global Innovation Index) va boshqa xalqaro indekslardagi pozitsiyani ko‘tarish imkoniyatlarini yoritadilar; ular tavsiyalar sifatida institutlararo hamkorlikni mustahkamlash, R&D moliyalashtirishni oshirish va oliy ta‘lim-biznes bog‘lanishini mustahkamlashni taklif qiladilar¹.

¹ United Nations. Economic Commission for Europe. (2022). Innovation for sustainable development: review of Uzbekistan. (No Title).

Prof. N. Rizaev tadqiqotlarida GIIning 2020–2022 yillardagi dinamikasi, O‘zbekistonning kuchli va zaif tomonlari (institutsional infratuzilma va inson kapitali bo‘yicha yutuqlar, ijodiy natijalar bo‘yicha kamchiliklar) hamda qaysi indikatorlarga urg‘u berish lozimligi batafsil tahlil qilingan, muallif milliy strategiyalarni indikatorlarga yo‘naltirilgan qilib qayta tuzishni tavsiya qiladi².

Prof. D. Axmedov tomonidan raqobatbardoshlik va indekslar (jumladan, GII hamda iqtisodiy raqobat indeksleri) orasidagi bog‘liqlikni o‘rganilib, O‘zbekiston uchun hududiy taqqoslashlar va boshqa mamlakatlar, xususan Qozog‘iston va Hindiston tajribasi asosida inson kapitali va tadqiqot infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni taklif etadi.

Har bir tadqiqot O‘zbekistonning xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshilash bo‘yicha empirika va amaliy tavsiyalarni beradi. UNECE va mahalliy tadqiqotchilar innovatsion va inson kapitali sohalariga urg‘u berishni, moliya va institutsional tahlilchilar esa biznes muhiti va kapital bozorlar orqali indekslarda tezroq yuksalishni tavsiya qiladilar.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi asosan nazariy tahlil usullariga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida xalqaro reytinglar tizimi, ularning baholash mezonlari hamda O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi islohotlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ilmiy-nazariy manbalar asosida tahlil qilindi. Metod sifatida qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil va tizimli yondashuv qo‘llanilib, xalqaro tajriba bilan O‘zbekiston sharoiti o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar aniqlandi. Shuningdek, mavjud ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari (Jahon banki, BMT, UNECE, WIPO) va mahalliy hukumat dasturlari kontseptual asos sifatida o‘rganildi. Natijada mamlakatning xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshilash uchun zarur bo‘lgan nazariy yo‘nalishlar va strategik yondashuvlar asoslab berildi.

Tahlil va natijalar

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi xalqaro hamjamiyatda o‘zining ijobiy imijini shakllantirish, iqtisodiy salohiyatini oshirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etishda muhim natijalarga erishmoqda. Mamlakatning xalqaro reytinglardagi o‘rni bu nafaqat raqamlar yoki statistik ko‘rsatkichlar yig‘indisi, balki davlat siyosati, boshqaruv samaradorligi, iqtisodiy islohotlar chuqurligi va fuqarolarning farovonligi darajasini ifodalovchi mezondir. Shuning uchun ham O‘zbekiston hukumati so‘nggi yillarda xalqaro reytinglarda yuqori natijalarga erishishni milliy rivojlanish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab oldi.

O‘zbekiston bugungi kunda ko‘plab global indekslarda faol ishtirok etmoqda. Xususan, “Human Development Index” (HDI) bo‘yicha O‘zbekiston o‘rta-yuqori rivojlanish darajasiga ega davlatlar qatoriga kiradi. GIIda esa so‘nggi yillarda sezilarli o‘sish kuzatilib, 2024-yilgi hisobotda mamlakat Janubiy Osiyo mintaqasida ilg‘or uchta davlat qatoriga kirdi. Shuningdek, “Corruption Perceptions Index”, “Economic Freedom Index”, “Global Competitiveness Report”, va ilgari “Doing Business” reytinglarida ham ijobiy siljishlar kuzatilgan (jadval).

² Rizaev N. Uzbekistan in the top three of the South Asia region by Global Innovation Index //MOLIYA VA BANK ISHI. – 2022. – T. 8. – №. 4. – C. 15-20.

O‘zbekistonning xalqaro reytinglardagi hozirgi holati (2024–2025-yillar tahlili)

T/r	Reyting nomi	Baholash mezonlari	O‘zbekistonning o‘rni (so‘nggi yillar)	Ijobiy o‘shishlar	Mavjud muammolar
1	Human Development Index (HDI) – BMT	Inson kapitali, ta‘lim, umr davomiyligi, YAIM	2024-yilda 0.727 (118-o‘rin, 193 davlat orasida)	Ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohasida barqaror o‘shish	Daromadlar tafovuti va hududlararo farqlar
2	Global Innovation Index (GII) – WIPO	Innovatsion infratuzilma, ilmiy tadqiqotlar, R&D xarajatlari	2024-yilda 82-o‘rin (132 davlat orasida)	Texnoparklar sonining ortishi, innovatsion loyihalar rag‘batlantirilishi	Ilmiy-tadqiqot xarajatlari YAIMga nisbatan past (1% dan kam)
3	Corruption Perceptions Index (CPI) – Transparency International	Korrupsiya darajasi, davlat boshqaruvi shaffofligi	2024-yilda 125-o‘rin (180 davlat orasida)	Davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi natijasida ochiqlikning ortishi	Sud tizimi va tender jarayonlarida shaffoflik yetarli emasligi
4	Global Competitiveness Index (GCI) – WEF	Bozor samaradorligi, texnologik tayyorgarlik, infratuzilma	2024-yilda 92-o‘rin (141 davlat orasida)	Transport infratuzilmasi va raqamli xizmatlar rivojlanishi	Innovatsion faoliyatning sustligi, ishlab chiqarish modernizatsiyasi darajasining pastligi
5	Economic Freedom Index – Heritage Foundation	Soliq yuklamasi, davlat xarajatlari, mulk huquqi, korrupsiya	2024-yilda 107-o‘rin (176 davlat orasida)	Soliq tizimi soddalashish	Sud mustaqilligi va mulk huquqi himoyasi bo‘yicha muammolar
6	Ease of Doing Business – World Bank (so‘nggi tahlil 2020)	Biznes ochish, kredit olish, soliq to‘lash, eksport-import	2020-yilda 69-o‘rin (190 davlat orasida)	Biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish soddalashganligi	Ba‘zi tartib-taomillar hali ham ortiqcha vaqt talab qilishi

Biroq bu yutuqlarga qaramay, ayrim yo‘nalishlarda (byurokratiya, qonun ustuvorligi, innovatsiyalar sifati, raqamli iqtisodiyot) hali ham tizimli muammolar mavjud.

O‘zbekistonning xalqaro reytinglardagi ko‘rsatkichlari barqaror ijobiy dinamikaga ega, bu esa mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini tasdiqlaydi. Ayniqsa, inson kapitali, raqamli boshqaruv, innovatsion rivojlanish va barqarorlik yo‘nalishlarida sezilarli yutuqlar kuzatilmoqda. Shunga qaramay, sud-huquq mustaqilligi, korrupsiyaga qarshi kurash, va ilm-fan faoliyatining sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash hali ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Kelgusida har bir xalqaro reyting indikatoriga mas‘ul idoralar faoliyatini

tizimlashtirish, ma’lumotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish hamda boshqaruv samaradorligini oshirish orqali O‘zbekistonning jahon reytinglaridagi o‘rni yanada mustahkamlanadi.

Mamlakatning xalqaro reytinglardagi o‘rni ko‘plab iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va institutsional omillar bilan belgilanadi (rasm).



1-rasm. Xalqaro reytinglarda o‘rinni belgilovchi asosiy omillar.

Bu omillar mamlakat taraqqiyotining turli jihatlarini qamrab olib, xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan mezonlar asosida baholanadi. Quyida xalqaro reytinglardagi o‘rinni belgilovchi eng muhim omillar keltirilgan:

✓ Iqtisodiy erkinlik va biznes muhiti.

Mamlakatda tadbirkorlikni boshlash va yuritish uchun yaratilgan shart-sharoitlar, soliqqa tortish tizimi, litsenziyalash va ruxsatnomalar tartibi, investitsion muhitning barqarorligi xalqaro reytinglarda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, sobiq “Doing Business” reytingi mamlakatlar uchun iqtisodiy islohotlarning ko‘rsatkichiga aylangan.

✓ Davlat boshqaruvi samaradorligi.

Boshqaruv tizimining ochiqligi, hisobdorlik darajasi, korrupsiyaga qarshi kurash, huquq ustuvorligi va davlat xizmatlarining raqamlashtirilganligi davlatning xalqaro obro‘cini belgilovchi muhim mezonlardir. Samarali boshqaruv ijtimoiy ishonchni oshiradi va mamlakatni xalqaro reytinglarda yuqori o‘ringa olib chiqadi.

✓ Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish.

Ta’lim, sog’liqni saqlash, mehnat unumdorligi va aholining hayot sifati “Human Development Index” (HDI) kabi reytinglarda asosiy o’lchovdir. Inson kapitaliga investitsiya uzoq muddatli barqaror rivojlanishning garovidir.

✓ Innovatsiyalar va texnologik rivojlanish.

“Global Innovation Index” (GII) mamlakatlarning ilmiy-tadqiqot faoliyati, texnologik yangiliklarni joriy etish, patentlar soni, startaplar soni va ilmiy nashrlar sifatini baholaydi. Innovatsion iqtisodiyotga o’tish reytinglarda yuqori o’rin egallashning eng tezkor yo’li hisoblanadi.

✓ Sud-huquq tizimi va qonun ustuvorligi.

Sudlarning mustaqilligi, qonunlarning adolatli qo’llanilishi va fuqarolarning huquqiy himoyasi “Rule of Law Index” kabi reytinglarda muhim rol o’ynaydi. Adolatli va shaffof huquq tizimi xorijiy sarmoyadorlar ishonchini mustahkamlaydi.

✓ Atrof-muhit barqarorligi va ekologik siyosat.

“Environmental Performance Index” (EPI) ko’rsatkichlariga ko’ra, ekologik muhofaza, yashil iqtisodiyot va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o’tish darajasi ham mamlakatning global nufuzini oshiradi.

✓ Raqamli transformatsiya va axborot texnologiyalari rivoji.

Raqamli iqtisodiyotga o’tish, elektron hukumat tizimining joriy etilishi va axborot texnologiyalarining barcha sohalarga integratsiyasi zamonaviy reytinglarda (masalan, “Digital Readiness Index”) muhim ko’rsatkichlardan biridir.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan “2022–2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi” hamda “Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash tizimini takomillashtirish to’g’risidagi qarorlar” mamlakatning bu boradagi yondashuvini tubdan o’zgartirdi. Hozirda har bir vazirlik va idoraga xalqaro reytinglardagi indikatorlarga mas’uliyatli yondashish vazifasi yuklatilgan. Shu asosda:

✓ biznes yuritishni yengillashtirish maqsadida litsenziya va ruxsatnomalar soni qisqartirildi;

✓ davlat xizmatlari raqamlashtirildi, natijada byurokratik to’siqlar kamaydi;

✓ sud-huquq tizimida islohotlar chuqurlashdi, fuqarolarning adolatga bo’lgan ishonchi oshdi;

✓ Innovatsion rivojlanish agentligi va Texnoparklar faoliyati kuchaytirildi;

✓ ta’lim va inson kapitalini rivojlantirish bo’yicha xalqaro hamkorlik (QS va Times reytinglari asosida) kengaytirildi.

O’zbekistonning xalqaro reytinglardagi o’rnini yaxshilash yo’lida bir qancha muammolar ham mavjud. Jumladan, ayrim statistik ma’lumotlarning xalqaro talablar darajasida yangilanmasligi, tahliliy hisobotlarni tayyorlashda malakali mutaxassislar yetishmasligi, hamda indikatorlar o’rtasida ma’lumotlar muvofiqligining pastligi jarayonni sekinlashtirmoqda. Shu bois kelgusida ma’lumotlar shaffofligini oshirish, xalqaro metodologiyalarni milliy statistika tizimiga integratsiya qilish, va kadrlar malakasini oshirish ustuvor yo’nalishlardan biri bo’lishi zarur.

Xulosa

Xalqaro reytinglarda yuqori natijaga erishish bu faqat raqamlar ortidagi maqsad emas, balki mamlakatning real iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish darajasining ifodasidir. O’zbekistonning so’nggi yillardagi islohotlari bu yo’lda muhim asos yaratdi. Endilikda asosiy vazifa mavjud natijalarni mustahkamlash, xalqaro reyting indikatorlariga tizimli yondashuvni

kuchaytirish va xalqaro hamkorlik orqali global standartlarga mos rivojlanish modelini shakllantirishdan iborat. Shu tarzda O‘zbekiston nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ham raqobatbardosh, barqaror va innovatsion davlat sifatida e’tirof etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. N.N. Norqobilov. Xalqaro farovonlik indeklari bo‘yicha O‘zbekistonning reyting o‘zgarish ko‘rsatkichlarini baholash //Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2025. – T. 5. – №. 08. – C. 41-47.
2. F.X. Mustafoeva, J.K. Yusubov. O‘zbekistonning xalqaro reytingdagi o‘rnini yaxshilashda tashqi siyosatning ahamiyati //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. Special Issue 13. – C. 721-724.
3. Habibjonov U. Professional savdoni shakllanish kanallarining tarqatilish tavsifi //Nordic_Press. – 2025. – T. 7. – №. 0007.
4. Tolibova S. O‘zbekistonning osiyo davlatlari bilan hamkorlik yo‘nalishlari (ASEAN davlatlari misolida) //Farg'ona davlat universiteti. – 2023. – №. 5. – C. 32-32.
5. Habibjonov U. Rejalashtirib sotish jarayonining umumiy tavsifi //Nordic_Press. – 2025. – T. 7. – №. 0007.